

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

3 май — Жаҳон матбуот эркинлиги
қунига бағишланган маҳсуе сон

Хива-2021

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаев Баҳром Исмоилов, ф-м.ф.д.
Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нагмет Қаллиевич, и.ф.д., акад.
Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Қадиров Шавкат Юлдашев, қ/х.ф.н.
Қўтлийев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энгел, б.ф.д., проф.
Мирзаев Сирожиддин Зайитиевич, ф-м.ф.д., проф.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.
Рўзимбоев Сапарбой, ф.ф.д., проф.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Қомилевич, и.ф.д., проф.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Сотипов Гошпитазар, қ/х.ф.д., проф.
Тожибаев Қомилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чупонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердиқулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамилла Исмоиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
Ўразбоев Гайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўразбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Хоразм Маъмуни академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№Маҳсуе сон (76), Хоразм
Маъмуни академияси, 2021 й. – 162 б. – Босма нашрининг электрон варианты -
<http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм
Маъмуни академияси

**МУНДАРИЖА
АРХИТЕКТУРА ФАНЛАРИ**

Шнекеев Ж.К. Буюк ипак йули ва ер ости йулакчаси 5

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Самандаров Э.И., Машарипов И.Г., Пирова М.Қ., Назарова Г.Б. Вешенка кўзикоринини уй шаронтида етиштириш 8

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ

Bozorov M.M., Fayziev Sh.Sh., Bozorov M.M. Determining the absolute height of the ground using the global mapper program and creating the relief of eroded lands on the basis of an automated system 11

ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Djumanova A.B., Artikova R.A. "Yo'lovchi vagonlarni ta'mirlash zavodi" AJ moddiy resurslardan foydalanish samaradorligiga oshirish yo'llari 16

Бабаханова Н.У., Султанова С.М. Особенности статистического анализа грузоперевозок АО «Ўзбекистон темир йўллари» 19

Султанова С.М., Нурматова И.А. Темир йўл транспорти саноат корхонасининг солик юки тахлили 23

Хамдамов Б.К., Бабаханова Н.У., Эргашев Ш.В. Стандартизация бухгалтерского учета на основе мсфо в ходе реформирования транспортной системы в Республике Узбекистан 25

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Ahmadov A.A. Vuxoro va Afg'oniston munosabatlari tarixi 30

Абдуллажапова Н.Т. Шаркшунос олим У.Каримовнинг берунийшуносликка кўшган хиссаси хусусида 34

Йўлдошев А.Б. Тожикистонда ўзбеклар сони ва уларнинг тарқалиши тарихидан 38

Тошпўлатов Б. Самарканд давлат тиббиёт институти тарихига назар 40

Умарова Р.Ш. Беруний фалсафий карашларининг назарий-ғоявий маъбалари 43

Хантов Х.А. Хўжа Насриддин Афанди халк қахрамони сифатида 45

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abduraxmonova N. Political communication in the context of media digitalization 49

Alibekova R.X. Rus tili darslarida interaktiv usullardan foydalanish 51

Allanazarova S.X. Atoqli otlar onomastikasining ilmiy va amaliy jihatlari 53

Almardanova Z.Ch. The using media technology in the teaching foreign language as communicative language learning 54

Amanlikova N.R. The use of innovative technologies in language learning 56

Babakulova L.R. Gidrotexnika terminlari haqida tushuncha 58

Burxanova G.M. Agrar universitetida kompetensiyani rivojlantirish sifatida rus tilini o'rganishning faoliyati va kommunikativ jihatlari 60

Ganixanova M.B. The using media materials in the teaching foreign language 62

Gaybullayeva Kh.M. Interaction of contrasting linguistics and translation theory 64

Isanova F.T. Objectives and principles of learning english language as a second foreign language in an agrarian university 66

Khaitova D. Basic theoretical and methodical aspects of teaching English language 67

Khujanova M.I., Yuldashev Sh.B. Features of teaching english language and literature 70

Mamedova N.Z. Universitetlarda rus tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish 72

Meyliyeva G. Distance learning – type of the modern education in Uzbekistan 73

Mirkasimova M.B. Innovative technologies for training foreign language in the high education 75

Mirzakulov I.N. Formation of professional competence of students of technical university 78

Muxitdinova D.X. Agrar universiteti talabalari uchun rus tili darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish tizimi 80

Narmurodova G. Verbalization of condolences in Uzbek and English lingvoculture 81

Nurmatova G.T. Developments in english for specific purposes: a multi-disciplinary approach 84

Saidova Z.U. Optimal methods of teaching English grammar 86

Saydikramova U.X. Methods of active learning in English lessons 88

Suyarova Sh.T. Pedagogical conditions for the development of a student's concept when learning a foreign language at an agrarian university 90

Umarova L.N. Interactive technologies in the teaching foreign language 92

Valieva H.S. Organization of independent work of students in the study of foreign language 94

Xamrayeva N.X. Modern pedagogical technologies in the teaching foreign language 96

3 май — Жаҳон матбуот эркинлиги кунига бағишланган махсус сон

BUXORO VA AFG'ONISTON MUNOSABATLARI TARIXI
A.A. Ahmadov, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro va Afg'oniston davlatlarining XVIII-XIX asrlarda olib borgan hamkorlik aloqalariga oid ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Afg'oniston, hamkorlik, savdo-sotiq, aloqalar, amir, qushbegi, qozi, karvon yo'li, ichki va tashqi savdo, savdogar.

Аннотация. Это статья содержит информацию о сотрудничестве между Бухарой и Афганистаном XVIII-XIX веках.

Ключевые слова: Бухара, Афганистан, сотрудничество, купля-продажа, отношения, эмир, кушбег, кози, путь каравана, внутренняя и внешняя торговля, торговец.

Abstract. The article covers the partnership between Bukhara and Afghanistan in the XVIII th and XIX th centuries.

Key words: Afghanistan, Bukhara, cooperation, trade, relations, amir, qushbegi, qozi, caravan road, Internal and external trade, merchant.

Kirish. Yurtimizning mustaqillikka erishish sharofati bilan, biz xalqimizning tarixini chuqur o'rganish va uni haqqoniy, rostgo'ylik asosida yoritish milliy qadriyatlarimizni tiklash vaqti keldi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'llarimizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy ana'nalarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiiq etmog'imiz kerak[1]".

Yurtboshimiz tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda tarix fanining yangi yo'nalishlarini belgilab, milliy tariximizga yangicha yondashib, uni asl manbalar asosida yoritib, chuqur tahlil qilishni ta'kidladilar.

Ushbu fikrlarga asoslanib yurtimiz tarixini chuqurroq o'rganish, uni nafaqat mahalliy manbalar balki xorijiy adabiyotlar tahlili asosida ham o'rganish bugungi kun uchun eng ahamiyatli vazifadir. Jumladan biz to'xtalayotgan Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasidagi XVIII-XIX asrlar hamkorlik tarixiga oid ma'lumotlar asosiy tadqiqot obyekti qilib olindi.

Mazkur maqolada Afg'oniston va Buxoro amirligi bilan olib borilgan savdo-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy va diplomatik munosabatlarda elchilar va sayyohlarning esdaliklariga ham murojaat qilindi. Ularning esdaliklari orqali ikki davlatning aloqalari yoritildi.

Mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi: XVIII-XIX asrlar yurtimiz tarixida mavjud davlat Buxoro amirligi va Markaziy Osiyodagi Afg'oniston davlatlarining tashkil topgan davrdan tokim ushbu davlatlardagi mavjud sulolalar Afg'onistondagi durroniylar va Buxorodagi mang'it amirlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari tarixini yoritish, ushbu davr manbashunosligida juda ko'plab asarlar tadqiqot obyekti qilib olingan. Ushbu asarlarni o'rganish davomida ikki davlatning hamkorlik aloqalari bilan bog'liq bo'lgan yangi lavhalarini ochish imkoni paydo bo'ladi. Biz ushbu maqolada Afg'oniston va Buxoro amirligining hamkorlik aloqalari haqida ayrim adabiyotlar jumladan, Muhammadjonov A.R., Nematov T. "Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar" asar orqali Buxoroning tashqi siyosati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni yoritishga harakat qildik. Fors tilidan H. To'rayev tarjimalaridagi Sayyid Mansur Olimiyning "Buxoro – Turkiston beshigi" asarlari Buxoroning qadimdan tokim so'ngi amiri Sayid Olimxonning (1910-1920-yy) Afg'onistonga qochib ketishigacha bo'lgan voqealar aks etgan jihatlar yoritilib o'tilgan. Bundan tashqari rus savdo elchilari asarlari orqali ham Buxoro va Afg'oniston davlatlari o'rtasidagi aloqalar haqida keng ma'lumotlar beriladi. Jumladan Meyndorf E.K. "Путешествие из Оренбурга в Бухару", Хаников N.V. "Описание Бухарского ханства", Буorns A. "Путешествие в Бухару", Буorns A. "Кабул-путевые записки сэра Александра Борнеа в 1836; 1837 и 1838 годах" asarlari ushbu davlatlar o'rtasidagi aloqalarni yoritishda muhim adabiyotlar sanaladi.

3 май — Жаҳон матбуот эркинлиги кунига бағишланган махсус сон

Mavzuning asosiy mazmuni: Markaziy Osiyo davlatlaridan biri bo'lmish Afg'onistondavlati 1747-yilda tashkil topgan bo'lib, ilk mahalliy davlat bu Durroniylar sulolasidir[2]. Bu davlatning asoschisi Ahmadshoh (1723-1772) bo'lib, u o'ziga duri-duron (marvaridlar marvaridi) kabi nomni berib Afg'oniston tarixida durroniylar sulolasi asoschisi sifatida nom qoldirgan[3]. Bu Durroniylar sulolasining 1747-1819-yillar hukmronlik qilishi va Angliya mustamlakasiga aylangunga qadar bo'lgan davrida Markaziy Osiyoning yana bir davlati Buxoro amirligi (1753-1920-yillar) bilan o'zaro hamkorlik aloqalari bo'lganligi bu aloqalar turli xil ko'rinishda olib borilganligi ma'lum. Dastlabki davrda Buxoro va Afg'oniston davlatlari o'rtasida siyosiy sohada do'stona munosabatlar yo'lga qo'yilmagan bo'lsada, chunki, o'z navbatida, Muhammad Rahim davlatni mustahkamlash va ma'muriy-hududiy birliklarni birlashtirish yo'lida tashqi siyosiy to'siqlarga duch kelgan. Mahalliy tarixchilardan Muhammad Sharif va Xumuliylarning guvohlik berishicha, afg'on sarkardasi Ahmadshoh Durroniy Burgut va Miyonqol hududlarida kechgan siyosiy g'alayonlarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan va mahalliy aholini Muhammad Rahim qo'shiniga qarshi kurashda chetdan turib qo'llab-quvvatlab turgan. Muhammad Rahim Buxoro amirlari orasida mamlakatning barcha hududida muayyan darajada tinchlikni saqlay olgan, davlatning chegaralarini mustahkamlagan, hamda tashqi dushmanlardan himoya qilgan yagona davlat boshlig'idir. O'z navbatida, u mamlakatni birlashtirishda muayyan darajada to'siq bo'lib turgan Afg'oniston davlati bilan sulh shartnomasini (1750-yil) imzolashga erishadi[4]. Ikinchi keyingi davrlarda ular o'rtasidagi munosabatlar qarindosh-urug'chilik, do'stlik kabi jihatlardan bog'langanligini ko'ramiz.

Fikrimizning isboti o'laroq ayrim manbalar va adabiyotlar tahliliga tayanadigan bo'lsak afg'on amirlari bilan Buxoro amirlari bir-biri bilan quda-andachilik munosabatida ham bo'lishganligini, Amir Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdumalik Katta to'ra (1848-yil - Buxoro, 1909-yil - Peshovar) Sheralixon (afg'on amiri) qizlaridan biriga uylantirilgandek, Afg'oniston amiri Abdurahmon (1881-1901) ham Amir Abdulahad singillaridan birini xotunlikka olganligi kabi misollarni ko'ramiz. Shu sababli ular qavm-qarindoshchilik rishtalari bilan o'zaro bog'lanishgan bo'lib, Afg'oniston Angliya zulmidan qutilishida Buxoro amirligi madadiga umid qilgan[5]. Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasidagi bunday yaqinlik ikki mamlakatning do'stona munosabatlarining ham rivojlanishiga olib kelgan. Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasidagi qarindoshlik rishtalari bilan birga ikki mamlakat o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlar ham bo'lib, Afg'oniston amiri Abdurahmonxon o'z akasining o'g'illari bilan bo'lib turgan doimiy janglardan bezib ikki bor Kobuldan Buxoroga qochib keladi va Buxoro amiri Muzaffariddin tomonidan unga izzat-ikrom ko'rsatildi. Shuningdek, unga mehmonnavozlik ko'rsatilib, Buxoro amiri tomonidan qimmatbaho sovg'alar ulashildi. Afg'on amirining hamrohlariga ham iltifotlar ko'rsatildi. Ular uchun maosh tayinlandi. Afg'oniston amiri Abdurahmonxon o'z xotira kitobining 36- sahifasida shunday yozadi: "Besh kun Qarshida to'xtab, so'ng Xo'ja deb Kogon mavzeiga yo'l oldim. U yerdan esa Buxoroga qarab yurdim. Kogonda bizni Buxoro qushbegisi[6], qozi[7], kutvol[8] va ba'zi yirik sarkardalar kutib oldilar va maxsus tayyorlab qo'yilgan joyga olib keldilar. Buxoro amiri bizni to'qqiz kun mehmon qilib, so'ng menga va mening yuqori lavozimli 3 mansabdorlarimga 10 ming tanga, mansabi pastroq amaldorlarimga besh yuz yoki olti yuz tanga, har bir otlq lashkarimga ikki yuz tangadan in'om qildi. Mening otim uchun esa tilla jabduq yubordi"[9].

Rivoyat mavjudki, amir Abdurahmonxon Buxoroning barcha viloyatlarida bo'lib, dilxushlik va shikor bilan mashg'ul bo'ldi. Aholi tomonidan yaxshi kutib olindi. Abdurahmonxon ikkinchi marta Buxoroda panohtopganda amir Muzaffar undan Afg'onistonga qaytish va o'z vazifasini bajarishga kirishishni iltimos qildi. Afg'onistondagi ichki ziddiyatlarni bartaraf qilishda Abdurahmonxonga yordam sifatida Buxorodan bir qism kuchlarni, Chorjo'ydan esa turkmanlarni Afg'onistonga jo'natdi[10].

Bundan tashqari O'rta Osiyo davlatlarining eng yaqin qo'shnisi bo'lgan Afg'oniston davlati bilan yaqinlik faqatgina quda-andachilik yoxud do'stona munosabatlar negizida bo'lmay balki, ularda savdo-sotiq munosabatlari yaxshi rivojlanganligi ham e'tiborga molikdir.

Afg'onistonliklar Buxoro amirligini boy-badavlat mamlakat hisoblar edi. XIX asrning ikkinchi yarmida Afg'onistondan Buxoroga ishlash yoki savdo bilan shug'ullanish uchun kelishlari odatiy hol

edi. Bu holatni o'sha davrda yashab ijod qilgan afg'onistonlik shoir Niyoziy Balxiy quyidagicha tasvirlagan edi:

Har faqire, ki omad az Kobul,
Sir dar mulki O'zbekiston shud.

Kobuldan kelgan har faqir O'zbekiston davlatida boyga aylandi – Buxoro amirligining ikkinchi nomi O'zbekiston edi[11].

Ayniqsa, Durroniylardan so'ng, 1828-yildan boshlab Afg'oniston amirligi tashkil topishi bilan, ikki davlatning munosabatlari goh iliqlashib, goh keskin tus olib turganligiga guvoh bo'lamiz. Afg'on savdogarlarini Peshovar-Buxoro karvon yo'li orqali Buxoro bozorlarida choy, doka, nil bo'yog'i, dorivor g'iyohlar, jun, hind va ingliz tovarlarini sotishgan. XIX asrning 80-yillarida Buxoroda hunarmandchilik sohasida ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri gilam va namat tayyorlash bo'lgan. Buxoro gilamlariga chet ellarda ham talab katta bo'lib, amirlik savdogarlari ularni ko'p miqdorda xorijga borib sotar edilar. Bundan tashqari O'rta Sharq mamlakatlari, Turkiston bozorlarida ham Buxoro gilamlari xaridorgir edi. Ichki va tashqi bozorlarda Buxoro ip-gazlama matolari, ko'nchilik, zardo'zlik, kumush va oltin kandakorlik buyumlari, bo'yoq va sovun mahsulotlari ham mashhur bo'lgan. Buxoro ustalarining oltin va kumushdan yasalgan buyumlari, ayniqsa, dong taratgan edi[12]. Buxoro amirligi XIX asrning oxirlarida ayniqsa Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron va Kavkaz bilan savdo aloqalariga ega bo'lgan. Xususan ushbu savdo aloqalari natijasida Buxorodan Kobulga gazlama, xom ipak, qurol, sandiq, rus buyumlari: kumush, po'lat, temir qog'oz kabilar olib borilgan[13].

XIX asrning 2-yarmida Buxoro amirligi hududida 20 ming sonli afg'on qora ishehilari va savdogarlar bor edi. Bu davrda afg'on savdogarlardan Badriddinning Buxoro shahrida "Saroyi Badriddin", Rashidning "Saroyi Rashid" nomli xususiy karvonsaroyi bo'lgan. Afg'oniston bilan savdoda buxorolik savdogarlardan Sayfulla, Xolberdi, Qurbon karvonboshilar, Kobuldan Rahmonqul, Xolmurod va Abdulvohid karvonboshilar, Maymandan, Otaboy, Rahmon, Abdurasul karvonboshilar Anxoydan Buxoro shahri va amirlikning boshqa savdo markazlariga keladigan savdo karvonlariga boshchilik qilishgan[14].

Bu davr tarixchisi Mirabdulkarim Buxoriyning asarini ko'radigan bo'lsa, bu asar XIX asrning boshlarida yozilgan bo'lsa ham, ammo rus sharqshunolariga 1876-yilda Parijda nashr etilgandan so'ng ma'lum bo'ldi. Asar, asosan, 1740-1818-yillar davomidagi voqealarni o'z ichiga olib, Afg'oniston, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixiga bag'ishlanadi[15]. Unda Buxoroning qo'shni davlat Afg'oniston bilan savdo aloqalari haqida muhim ma'lumotlar berib o'tilgan.

Aynan bu davrda Buxoro yirik savdo markazlariga aylangan davlat edi. Chunki bu davrda Buxoro amirligidagi savdogarlarga xizmat qilgan savdo karvonsaroylarining soni ham yil sayin oshib borganligi, ularga istiqomat qilayotgan savdogarlar ham turli millat vakillaridan iborat bo'lib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda faqat afg'on savdogarlari bo'lmay rus, hind, eron va boshqa millat vakillarining savdo karvonlari qatnab turgan. Bizni qiziqtirgan masala bo'yicha muhim ma'lumotlari yurtimizda bo'lib sayohat qilgan va o'z kundaliklarida yurtimiz haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan boshqa millat vakillarining asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Xususan, rus sayyohi va ofitseri T.S.Burnashevning asarida ham uchratishimiz mumkin. U Rus hukumatining topshirig'iga ko'ra, 1794-yili Buxoroda bo'lgan edi[16]. U Buxoroda bo'lgan vaqtda u yerga savdo qilish uchun Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa yurtlardan kelgan turli millat vakillarini ko'rgan. Burnashev Buxoroda joylashgan bozorlar to'g'risida yozib qoldirgan. Agarda Yefremovning sayohati davrida Buxoroda 4 ta g'isht karvonsaroy bo'lgan bo'lsa, Burnashev davrida ularning soni 9 ta bo'lgan. Karvonsaroylar sonining ortib borishiga e'tiborni qaratsak, Buxoroning tashqi iqtisodiy aloqalarining o'sib borganligi to'g'risidagi taasurotga ega bo'lamiz.

Bundan tashqari Buxoroning qo'shni davlatlari bilan aloqalari tarixi XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlarida 30 yildan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qilgan Gabaydulla Amirov tomonidan ham yozib qoldirilgan. Uning ko'rsatmalari 1825-yil "Азиатский Вестник" jurnalida nashr qilingan. G.Amirovning ma'lumotlariga ko'ra, Hindistonning Jaynagar va Xaydarobod shaharlariga Buxoro va Kobul mollari qatori rus tovarlari ham keltirilgan[17].

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

G.Amirov Kobul shahrining Buxoro-Afg'oniston savdosidagi muhim markaz ekanligi haqida yozib, bozorlarida 4 ta karvonsaroy, ularda hindistonlik, kashmirlik, eronlik va buxorolik savdogarlar to'xtashgan, deb ma'lumot beradi.

Biz uchun E.K.Meyendorfnin asari muhim ahamiyatga ega. XIX asrning 20-yillarida Chor Rossiyasi Buxoro amirligiga o'z ekspeditsiyasini yuboradi. 1820-1821-yillardagi A.F.Negri boshchiligidagi ekspeditsiya tarkibida tabiatshunos E.K.Meyendorf ham bo'lgan. U sayohati mahsuli sifatida 1826-yilda "Путешествие из Оренбурга в Бухару" deb nomlangan kitobini nashr qildirgan. Asarda ko'proq Buxoroning ichki va tashqi savdo aloqalari yoritilgan. U Buxoroni savdo-sotig'i rivojlangan, Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan doimiy qizg'in savdo aloqalarida bo'lgan, aholisi zich joylashgan shahar, deb hisoblagan.

U Buxoroda bo'lganida 14 ta karvon saroy mavjudligini aniqlagan. Ular Abdullajon, Qushbegi, Hind, Nug'oy, Xo'ja Jo'ybor, Toshkent, Qarshi, Miragul, Amir, Kullota, Fishana, Dankulla-Shir va Urganch nomlari bilan atalgan[18]. XVIII asrning 70-yillarida Buxoroda 4 ta g'isht karvon-saroy bo'lgan bo'lsa, XIX asrning 40-yillarida N.V.Xanikov davriga kelib ularning soni 24 ta g'isht va 14 ta cho'pkori karvonsaroyga yetgan[19]. Karvonsaroylarning yetishmaganligi sababli katta timlar qurila boshlangan.

Buxoroning qishloq xo'jaligi xususida yozib, Buxoro paxtasining kattagina qismi eksport qilinganligi bois paxta etishtirish masalasiga alohida ahamiyat berilishini ta'kidlagan. U Kobulda g'o'za o'simligi yaxshi o'smasligi sababli paxta Kobulga Buxorodan keltirilishini eslatib o'tgan.

E.K.Meyendorf o'zining "Путешествие из Оренбурга в Бухару" deb nomlangan kitobida bergan ma'lumotlari orasida Buxoroning Afg'oniston bilan savdo aloqalari haqidagi fikri diqqatga sazavordir. Afg'oniston bilan savdo aloqalari ikkita savdo yo'li orqali olib borilishi xususida fikr bildirilgan. Birinchisi, Balx orqali Kobulga, ikkinchisi esa Buxorodan Hirotga boradigan yo'l bo'lgan. Afg'oniston Buxoroga eng yaqin mamlakat bo'lganligi sababli uzoq yillardan buyon bu ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari doimiy davom etib turgan. Meyendorf ma'lumotlariga ko'ra, bir savdogar Buxorodan Kobulga 30 marta borgan ekan. Uning yozishicha, afg'onlar Buxoroga o'zlarining tovarlarini va tranzit yo'li bilan kashmir sholi matosini olib kelgan.

Shunday qilib, Meyendorf keltirgan dalillar XIX asrning 20-yillarida ham Buxoro xonligining Afg'oniston bilan jadal savdo aloqalarida bo'lib turganligini tasdiqlaydi[20]. Buxoroda taxminan 4000 afg'onlar bo'lib, ularning bir qismi savdo bilan shug'ullanganliklarini aytib o'tadi.

Bu davrda tarjima asarlar ham paydo bo'la boshladi. Masalan: ingliz sayyohi, diplomat va josusi A.Berns XIX asrning 30-yillarida Britaniya hukumatining maxsus topshirig'i bilan Buxoroga jo'natilgan edi. Uning asarida Hindiston, Afg'oniston va Buxorodagi ijtimoiy-iqtisodiy voqealar haqida, ayniqsa shu mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlari to'g'risida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Shu maqsadda Berns Buxoro xonligining ichki va tashqi savdosini diqqat bilan o'rganadi[21].

Berns Buxoroda afg'onlarning savdo bilan shug'ullanishini ta'riflab, ularning ba'zilar Buxoro orqali Rossiya bilan ham savdo qilgan, deb yozadi. Bunga misol qilib, Berns bilan birga Kobuldan Dulat degan afg'on savdogari savdo qilish uchun Buxoroga kelganligi, u yerdan Rossiyaga bormoqchi bo'lganligi haqida yozib qoldirganligini eslatish kifoya.

Bernsning ma'lumotlariga ko'ra, Kobul bozorlarida Buxorodan keltirilgan 40 dan ortiq nomdagi rus va O'rta Osiyo mollari bo'lib, ulardan 30 dan ortig'i Rossiyadan keltirilgan edi[22].

Bundan tashqari 1840-1842-yillarda Buxoroga tog'injeneri va diplomati K.F.Butenev elchiligi kelgan. Elchilik tarkibida N.V.Xanikov ham Buxoroga tashrif buyurgan. Natijada elchilik ishtirokchisi N.V.Xanikovning "Описание Бухарского ханства" degan asari paydo bo'lgan.

Xanikovning ushbu asarida Buxoro bilan Kobul o'rtasidagi savdo qishda dovon qor bilan qoplanib qolgan vaqtida qiyin ahvolda qolganligi, shuning uchun, u Kobuldan savdo karvonlari birinchi yoz oyining oxiri yoki ikkinchi oyining boshlarida Buxoroga kelganligi, oxirgi karvon esa yozning oxirgi oyi va kuzning boshlarida kelganligini yozadi. Afg'onistondan Buxoroga asosan to'q ko'krang bo'yoq va ingliz tovarlari keltirilgan deya ma'lumot beradi[23].

Xulosa qilib shu aytish mumkinki XVIII-XIX asrlarda Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari bazan do'stona, bazan siyosiy qaramaqarshiliklarda

kechganligiga guvoh bo'lamiz. Dastlabi Durroniylar sulolasi (1747-1819 yy) davridagi hukmdorlar Ahmadshoh duroniy (1747-1773 yy), Temurshoh (1773-1793 yy), Zamonshoh (1793-1801 yy), Mahmudshoh (1801-1803 yy), Shuja al Mulk (1803-1809 yy), Mahmudshoh (1809-1818 yy) davridagi ikki mamlakat o'rtasida savdo-sotiq, iqtisodiy aloqalar hech vaqt to'xtab qolmagan. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ham ko'rishimiz mumkinki Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasida hamkorlik aloqalari turli ko'rinishlarda bo'lib, ular qarindoshlik, o'zaro do'stona, savdo-sotiq ko'rinishlarida amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday do'stona munosabatlar biz yuqorida ko'rsatgan cheklangan davr (XVIII-XIX) bilangina chegaralanmay balki, keyingi davrlarda ham davom etganligiga manbalar va adabiyotlar tahlili orqali guvoh bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddas. Toshkent. "O'zbekiston" 1995. 176-bet.
2. Rasmiy nomi – Afg'oniston Islom Respublikasi. Poytaxti Kobul. Hududi -652 090 kv km. Aholisi – 34 162 070 kishi (2017-yil 1-mart). Davlat tili – dariy (50%) va pushtun (35%). Davlat dini – islom. Pul birligi – afg'oni.
3. Axmad-shah Durranii — Википедия files\Axmad-shah Durranii — Википедия.
4. Qarang: Мухаммад Шариф. Тож ут-тавориш: Қўлёзма Ўз ФА ШИ, ишв. № 9265; J.M.Shodiyev Buxoro amirligi davlatchiligidining rivojlanishi. T., 2010.-B.14.
5. Mirzoev Sh Buxoro-Afg'oniston: Tarix chorrahasida (XIX-asr oxiri-XX asr boshlari) Buxoro., "Durdona", 2018-yil, B.26.
6. Qushbegi (qo'shbegi) amirlikda ijro hokimiyati boshlig'i bosh vazir hisoblangan. Viloyat va human hokimlari qo'shbegi tavsiyasi bilan o'z lavozimiga tayinlangan.
7. Qozi (arab) –ijro etuvchi hukm chiqaruvchi) – hukmdor tomonidan tayinlanib, shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi sudya, shar'iy mahkama raisi.
8. Kutvol-chegara qo'shinlarida joylashgan qal'a va istehkomlarning hokimi bo'lib, shu tumanlarning harbiy, ma'muriy, xiroj va boj olish ishlariga, chegarani muhofaza qilish ishlariga javob berardi.
9. Sayyid Mansur Olimiy Buxoro – Turkiston beshigi. (fors tilidan Halim To'rayev tarjimasi) Buxoro – 2004-yil.-B. 44.
10. Sayyid Mansur Olimiy Buxoro – Turkiston beshigi. fors tilidan Halim To'rayev tarjimasi Buxoro – 2004-yil.-B. 44.
11. Eldar Hasanov Yuz yil oldin Afg'oniston Buxorodan 200 ming qochqin qabul qilgan edi... O'zbekiston – Afg'oniston aloqalari tarixidan maqolasi.
12. Tillaboyev S, Zamonov A O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). T., "Sharq", 2014-yil, B.113.
13. Mirzoev Sh Buxoro-Afg'oniston: Tarix chorrahasida (XIX-asr oxiri-XX asr boshlari) Buxoro., "Durdona", 2018-yil, B.18.
14. O'sha asarda 18-betda.
15. Muhammadjonov A.R, Nematov T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar. "O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi" nashriyoti. T., 1957.-B.52.
16. Бурнашев Т.С. Путешествие от Сибирской линии до города Бухары в 1794 и обратно в 1795 году //Сибирский вестник. СПб., 1818. ч.П-Ш.
17. Амиров Г. Странствование Габайдуллы Амирова по Азии //Азиатский вестник СПб., 1825. № 1-6. С.110.
18. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С.100.
19. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. С.88-89.
20. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975.
21. Борне А. Путешествие в Бухару. Ч.1. М., 1848. С. 448.
22. Борне А. Кабул -путевые записки сэра Александра Борнеа в 1836; 1837 и 1838 годах. Ч.1.М., 1847.С.41-42.
23. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. С.90.

УЎК 93

ШАРҚШУНОС ОЛИМ У.КАРИМОВНИНГ БЕРУНИЙШУНОСЛИККА ҚЎШГАН ХИССАСИ ХУСУСИДА

Н.Т. Абдуллажанова, Наманган муҳандислик қурилиш институти, Наманган

Аннотация. Мақола атоқли шарқшунос У.Каримовнинг Абу Райҳон Берунийнинг илмий меросини ўрганганига қўшган ҳиссасига бағишланган. Унда олимнинг тадқиқотлари икки гуруҳга ажратилган: Беруний асарларининг фармакогнозия ва филология тарихидagi

3 май — Жаҳон матбуот эркинлиги кунига бағишланган махсус сон